



AIFU

1-4 sinflarda ingliz tilini o'qitishda fonetik interferensiyani audio mashqlar orqali bataraf qilish usullari

Shahnoza Abduhalilovna Djurayeva

Magistratura talabasi

O'zbekiston Milliy Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu taqrizda 1-4 sinflarda ingliz tilini o'qitishda fonetik interferensiyani audio mashqlar orqali bataraf qilish usullari, Ingliz tili o'qitish mazmuni uch tarkibli ta'limi hodisasi, boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasining lingvistik asoslari haqida atroflicha bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, fonetik interferensiya, nutq malakalari, lingvistik asoslar.

Kirish:

Chet tilni hamma umumiy o'rta ta'lim mакtabining 1-sinfidan boshlab ommaviy o'rganish joriy qilinishi munosabati bilan Yevropa Kengashining «Chet tilni egallashning umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish, baholash» to'g'risidagi xalqaro hujjatning ba'zi bir holatlarini nazarda tutgan holda Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha Davlat ta'lim standarti va O'quv dasturlari ishlab chiqildi va 2013-2014 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilindi.

211

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Ingliz tili o'qitish mazmuni uch tarkibli ta'limi hodisadir: 1) nutq mavzulari; 2) ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar; 3) til materiali. O'qitish mazmuni mavjud sharoitga ko'ra, shuningdek o'quv predmetiga ajratilgan vaqtga qarab tanlanadi. Nutq faoliyati doirasi dasturiy mavzular bilan belgilanadi. Yaratilgan va o'zga shaxs sodir etgan diskurs dasturdan o'rin olgan mavzularga bevosita bog'liq bo'ladi. Ingliz tili o'qitish mohiyatini o'qitish maqsadlariga bevosita bog'liq bo'lib, u odatda, maqsad mazmunini belgilaydi. Mazmun ta'lim chog'ida o'zlashtiriladigan metodik tushuncha yoki kategoriya bo'lsa, uning mahsuli erishiladigan maqsadni aks ettiradi.

O'qitish mohiyatiga nutqiy mavzular, malaka va ko'nikmalar, shuningdek til materiali kiradi. Ushbu uchta tarkibiy qism ingliz tilini o'rganishda yaxlit o'zlashtirishni taqozo etadi. O'quv dasturda o'quvchilar yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan shaklda mavzular jadvallarda sinflar bo'yicha alohida berilgan. Jadvalda sinflar bo'yicha taqsimlangan muhim mavzular miqdori darslikda shu miqdordagi bo'limlar bo'lishi zarur, degan ma'noni anglatmaydi.

Natijalar:

Muhim mavzular tarkibidagi kichik mavzular ham til materiali hajmidan kelib chiqqan holda alohida bo'lim bo'lishi mumkin. Nutq malakalari deganda, chet tilda nutq faoliyati turlarini egallash darajalari tushuniladi. Malaka o'quvchilarning ingliz

tili o'rganish vaqtida olgan malakalarini amaliy faoliyatida sobitqadamlik bilan mustaqil shaklda foydalana olish kompetensiyasi sanaladi..

Nutq malakalari til materialini muloqot vaqtida qo'llash jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili o'qitishning muhim vazifasi bo'l mish nutqiy malakalarni singdirish chog'ida ularga mos keladigan lisoniy ko'nikmalarni ham o'zlashtirishdan iboratdir. Bunday ko'nikmalar asosini mazkur dasturda ko'rsatilgan til materiali tashkil etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktab kursida ingliz tili o'rgatishning yakuniy amaliy maqsadi - tinglab tushunish va o'qish, ya'ni ingliz tilida tinglab va o'qib axborot olishdir.

Muhokama:

O'quv dasturida oraliq amaliy maqsad I sinfda tinglab tushunish va gapirish, II-IV sinflarda ham tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad, o'qish va yozuv esa og'zaki nutqda o'rganilgan til materialini takrorlash va mustahkamlash vositasi sifatida belgilangan. Ingliz tilidan o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan fonetik va grammatik minimum nomma-nom keltirilgan. Leksik birliklar faqat miqdor tomondan belgilangan.

Ma'lumki, har bir sinf oxirida egallanishi kerak bo'lgan leksik birliklar ro'yxati va malakalarining egallanganligini aniqlovchi testlarning ilova qilinishi dasturning yanada mukammal bo'lishini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasining lingvistik asoslari o'qitish jarayonining lingvistik asoslaridan farqlanishi darkor. Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasining lingvistik asoslari zamonaviy o'qituvchiga shaxsiy ishchi o'quv dasturi uchun til materialini tanlash, metodik tashkil qilish va uni taqdim etishda yordam beradi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, zamonaviy o'qituvchi muhim darslik-majmuadan foydalanish bilan cheklanmay sinfdagi o'quvchilarning salohiyatidan kelib chiqib darsning sifati va samaradorligini oshirish niyatida turli manbaalardan qo'shimcha materiallar tanlaydi. Shu tufayli, zamonaviy o'qituvchi fan bo'yicha ishchi o'quv dasturini rivojlantirishda kimga, nimani, qanday, va qancha o'qitish masalasini savodli hal qilishi zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ingliz tilida fikr ifodalash usuli sifatida nutqini takomillashtirish katta qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi. Chunki fikrni rivojlantirish ichki planda ona tilida sodir bo'ladi, ifodalash esa tashqi planda ingliz tilida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ingliz tili o'quv dasturi. Tuzuvchilar: J.J.Jalolov, M.T.Irisqulov. – Xalq ta'limi. – №4 – Toshkent, 2013.
2. Toliboboyeva, Sh. Ingliz tilini o'qitishdagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari. YoungScientist, 2020.
3. Bekmuratova U.B . " Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" // Toshkent 2012.
4. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"// 2020.
5. Najmiddinova, M. R., & Jalolova, S. M. (2021). CONTRASTIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK PUNCTUATION RULES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(06), 1-5.
6. BALANCES, O. S. W. O. C. ROOTABLE LAYER IN EXPERIMENTAL PRODUCTION SECTIONS. Ozatboy Bazarovich Imamnazarov, Tokhirjon Olimjonovich Qosimov, Makhammadali Rustamjonovich Abdullaev ISSN, 2349-0721.
7. IMAMNAZAROV, O. B., QOSIMOV, T. O., & ABDULLAEV, M. R. (2020). Balances Of Soil Waters Of Cotton Rootable Layer In Experimental Production Sections. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(05), 318-321.

8. Jalolova, S. M., Otakulov, N. B., Urmonova, N. M., & Nazarova, D. O. (2022). MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(4).
9. Odilov, B., & Karimov, N. (2022). COVERAGE OF ECONOMIC AND CULTURAL TRADITIONS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE IN ETHNOLOGICAL RESEARCH (ON THE EXAMPLE OF THE FERGANA VALLEY). *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(3).
10. Имамназаров, О. Б. (1993). Регулирование мелиоративного режима при близком залегании слабоминерализованных грунтовых вод.
11. АГЗАМОВА, Д. Б. (2018). COGNITIVE ANALYSIS OF METAPHORIC PHRASES OF THE CONCEPT "MEMORY" IN THE ENGLISH AND UZBEK BELLES-LETTRES TEXTS. *Иностранные языки в Узбекистане*, (2), 94-100.
12. Odilov, B., & Karimov, N. Archaeological Research is an Important Source in the Study of Traditional Economic Activities of the Uzbek People (On the Example of Some Researchers of the Twentieth Century).
13. Makhammadovna, M. F., & Agzamova, D. B. (2021). Psycholinguistic studies of pre-wedding and wedding traditions (on the basis of English and Uzbek phraseological units). *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
14. Shodmonov, A. (2022). Coverage of titles in Central Asian Hellenistic Sources. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, 11, 24-26.
15. Abdullaeva, M., Jalolova, S., Kengboyeva, M., & Davlatova, K. (2021). Universal Human Values as Axiological Values. *REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS*, 11(2), 802-816.
16. Davlatova, K., & Nematov, O. (2021, November). Traditional jeweleries and decorations. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 26-28).
17. Shodmonov, A. A. (2021). THE FORMATION OF PRIMITIVE CONSCIOUSNESS AND THE PROCESSES BY WHICH HUMANS ADAPT TO NATURE. *Scientific progress*, 2(6), 1571-1574.